



XALQ O‘YINLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MA‘NAViy-AXLOQiy TARBIYALASH

Jumaniyazova Zlixa Reymovna
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha
ta'lim texnologiyasi kafedrasida v.b.dotsenti

Аннотация: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini va maktabgacha katta uoshdagi bolalarni ta'lim standagtlagi, o'quv dastuglagi asosida mantiqiu fikglashga, amaliu ko'nikmalarni shakllantigishga, big so'z bilan autganda, ulagni maktabga tauuoglashga o'ggatish maqsadga, ularning yechimlari hamda amaliyotga keng tadbiqu yoritib beriladi.

Калит сўзлар: kreativ uondashuv, taraqqiyot strategiyasi, milliy ta'lim, innovatsiya, metodik tayyorgarlik, pedagogik amaliyot, konsepsiya.

Аннотация: Дошкольная образовательная организация должна обеспечить, чтобы педагог (воспитатель) при формировании у детей духовно-нравственных представлений, глубоком понимании содержания и сущности образования учитывал его в учебно-воспитательной деятельности с детьми и, следовательно, прежде всего, поднимал культуру, духовно-нравственный потенциал подрастающего поколения, пробуждал его национальную идеологию. Ведь только человек, осознавший себя, постигший духовность нации, узнает свой народ, нацию, Родину, семью. Осознает долг, ответственность, обязательство перед народом и нацией.

Ключевые слова: креативная адаптация, стратегия развития, национальное образование, инновации, методическая подготовка, педагогическая практика, концепция.

Abstract: A preschool educational organization should ensure that a teacher (educator), when forming spiritual and moral ideas in children, a deep understanding of the content and essence of education, takes it into account in educational activities with children and, therefore, first of all, raises the culture, spiritual and moral potential of the younger generation, awakens its national ideology. After all, only a person who has realized himself, who has comprehended the spirituality of the nation, recognizes his people, nation, Homeland, family. He is aware of the duty, responsibility, obligation to the people and the nation.

Keywords: creative adaptation, development strategy, national education, innovation, methodological training, pedagogical practice, concept.



Mamlakatimizda amalga oshiriladigan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy islohotlarning zarur asoslarini yaratib berishga qaratilgan “Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi”da maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish, ularni rivojlantirish boʻyicha milliy dasturini joriy etish, maktabgacha taʼlimga qamrov darajasini amaldagi 67 foizdan 81 foizga yetkazish hamda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda intellektual, jismoniy va estetik tarbiya vositalari yordamida bolada bilim darajasini koʻtarish, MTT pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini oshirish kabi ustivor vazifalar belgilangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirish boʻyicha alohida taʼlim standartlari, oʻquv dasturlarini ishlab chiqish va barcha yondashuvlarni tubdan qayta koʻrib chiqish, ularni qayta takomillashtirish, taʼlim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha vazifalar belgilab berildi. Amaldagi taʼlim-tarbiya jarayonining mavjud maʼlum bir yoʻnalishlar asosida texnologiyalarini takomillashtirish va targʻib qilish, kundan kunga rivojlanayot ijtimoiy jamiyatda inson ehtiyojlaridan kelib chiqib zamonaviy talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kun talabi boʻlmogʻi lozim. Qayd etilganidek, belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagog xodimlarning malaka darajasini yuksaltirish, taʼlim tizimini tubdan isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon pedagogi kreativlik, hozir javoblik, kommunikativ qobiliyat, sharoitga tez krishuvchan, ijodiy faoliyatga moyil, innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan zamon talablariga javob bera oladigan pedagoglar boʻlib yetishishi kerak. Yuqorida sanab oʻtilgan vazifalar ijrosi uzluksiz taʼlimning ilk bosqichi sanalgan maktabgacha taʼlim tashkiloti pedagoglariga katta masʼuliyatlar yuklaydi. Mamlakatimizda zamon talabiga mos pedagoglarni tayyorlash, maktabgacha taʼlim tashkiloti bolalariga sifatli taʼlim-tarbiya berishning samarali yoʻllarini targʻib qila olish mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash oliy taʼlim muassasalari oldiga qoʻyilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

“Maktabgacha taʼlim tashkiloti pedagog-tarbiyachi bolalarda maʼnaviy-axloqiy tassavurlarini shakllatirishga” Falsafa fanlari doktori, professor Ye. Yusupov taʼkidlaidi, «Inson hayot tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan maʼnaviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari oʻz oldiga ajoyib vazifalarni qoʻyib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa maʼnaviy zaminni talab qiladi. Maʼnaviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanadi».

Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Zahridin Myhammad Boburlarning asarlarida “Chavgon” oʻyini haqida maʼlumotlar keltirilgan. Firdavsning



“Shohnomasi”da esa “Chavgon” (chavgon cho‘pi shu nom bilan atalgan bo‘lib, fors-tojikcha so‘zdir, uning ma‘nosi “uchi egri uzun tayoq” degani) haqida voqea bayon qilingan. Ulug‘ bobokolonimiz Amir Temur davrida ham bolalarning o‘yin jarayoniga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib o‘g‘il bolalarga ot minish, chavandozlik uch yoshdan o‘rgatilganligi ma‘lum. Sohibqiron Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da shunday deydi: “Qo‘shin tarkibiga navkarlarni olishda uch qoidaga amal qilindi: birinchisi sog‘lom va baquvvat bo‘lishi, ikkinchisi - qilichdan mohirona foydalanishi, uchinchisi- aql-zakovatiga va barkamolligiga”. Ulug‘ munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari diqqatga sazovordir. Uning “Farzandingiz sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘shisini istasangiz, uni kichik yoshdan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantiring” degan so‘zlarining ahamiyati beqiyosdir.

Tibbiyot olamining sultoni Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida “Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug‘ullangan odam hech qanday davolashga muhtoj bo‘lmadi” deb aytgan.

Buyuk allomalarimiz Yusuf Xos Hojib Abu Nasr Forobiy, Muso al – Xorazmiy, Abu Rayhon Beryniy, Amir Temur, Ahmad Yugnakiylar milliy urf-odatlarimizga xos farzand tarbiyasi xaqidagi turli fikrlarini o‘z asarlarida yozib qoldirganlar.

Olimlarning bolalarni tarbiyalashda qoraqalpoq xalq pedagogikasining ma‘naviy-axloqqa oid asarlaridan foydalanish, farzand ta‘lim - tarbiyasida eng ta‘sirchan uslub sifatida foydalanilganligi aytib o‘tilgan.

Qoraqalpoq o‘yinlarining kelib chiqishi va tarixi haqidagi ma‘lumotlar bizgacha XI asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobi orqali yetib kelgan. Asarda o‘zbek harakatli o‘yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to‘planish, o‘yin boshi, chek tashlash kabi o‘yin shakllaridan namunalar keltirilgan.

P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy pedagog va psixolog olimlaridan tomonidan o‘yin texnologiyalarining nazariyasi amaliyotda o‘rganilgan va ishlab chiqilgan. K.D. Ushinskiy roli o‘yinlar bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlaydi va o‘yin orqali bola shaxsi shakllanadi. U “Bolalar o‘yinlari ko‘p asrlik tarixga ega. Insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”- deb, ta‘kidlaydi.

Bundan tashqari, D.B.Elkonin, N.L.Figurin va E.A.Arkinlarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun asos bo‘lib kelgan. Psixolog olim D.V.Elkonin o‘yin to‘g‘risida o‘z g‘oyalarini ilgari suradi. Jamiyat taraqqiyotida kattalar hayoti va mehnatida bolalarning mehnat jarayonida ishtiroki uchun bolalarga xos qulay o‘yinchoq-qurollari ishlab chiqilgan. O‘yinchoq-qurollar paydo bo‘lishi



natijasida bolalarda rolli o'yinlarga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi. D.V.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning sujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjyd ekanligini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi va kattalar mehnatida ishtiroki bolada mehnatga bo'lgan qiziqish hissini uyg'otishni ilgari surgan.

Xalq o'yinlari vositasida maktabgacha ta'lim-tarbiyani takomillashtirish ijtimoiy moslashuv davrida bolada mehnatga bo'lgan ilk tassavurlar orqali shakllanadi.

Go'dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Bular N.L.Figurin, M.P.Denisova, A.Vallon, D.B.Elkonin, M.Y.Kisyakovskiy, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Buyler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

Qoraqalpoq xalq o'yinlarida hayotda mavjud holatlarni o'zida aks ettiradi va mazmun-mohiyati ijtimoiy moslashuv davrida omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Qoraqalpoq xalqining milliy o'yinlari maqsadga qaratilgan, o'ylangan jarayon hisoblanadi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning o'quv faoliyati rivojlanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar xalq o'yinlarini qancha ko'p o'ynasa atrof-olam haqida shuncha ko'p tushunchalarga ega bo'ladilar va ushbu jarayonlarda xalq o'yinlari asosida bolalarda dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning qobilyatlari har xil turdagi faoliyatlarda rivojlanadi, mustaqil hatti-harakatlarida paydo bo'ladi (A.V.Zaporojst), tasavvur rivojlanadi (N.N.Palagina, O.M.Dyachenko, L.N.Paramonova, V.T.Kudryastev). Ko'pgina tadqiqotchilar esa o'yin jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotida yetarli darajada emasligida xavotir olishmoqda.

Rus pedagogi, bolalar yozuvchisi V.A.Suxominskiy ta'kidlaganidek "O'yin-bu uchqun, u olovdek avj olib boradida hamma narsani, voqealarni sababini tushunib yetishga harakat qiladi, y bolalarning qiziquvchanligini oshiradi. O'yin-bu ulkan yorug' deraza, u orqali bolalarning eski dunyosiga bir olam yangi tasavvur atrofdagi olam haqida tushunchalar olib keladi". Darhaqiqat, bola hayotini o'yinsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'yinning roli bola hayotida juda muhim o'rin egallaydi. Bolalarda o'yin faoliyati ularning ruxan va jismonan rivojlanishida motiv sifatida tafakkurning rivojlantruvchi muhim vosita hisoblanadi.

L.S.Vigotskiy o'z asarlarida o'yin faoliyatini bolalar rivojlanishining hal qiluvchi yetakchi faoliyati sifatida tan olgan. O'yin bolalar hayotida ko'p qirrali faoliyat bo'lib, bunda kattalar kabi o'zini tutish, mehnat, turli narsalar nisbatan



qiziqish, o'zini tuta bilish va xursandchlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida o'z aksini topgan. Ta'kidlash zarurki, o'yin faoliyati faqatgina atrof-muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasi bo'lib qolmasdan, balki tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning psixologik va individual xislatlari shakllanadi. O'yin faoliyatlarini chetdan kuzatsak, o'yin jarayonida bola o'zida mavjud shaxsiy xususiyatlari (qobiliyatlari, qiziqishlari, irodasi, diqqati, xotira, temperamenti)lari yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu bois maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari, ularni individual o'rganish uchun juda qulay sharoitdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati xalq o'yinlari bilan chambarchas bog'liqdir. Qoraqalpoq xalq o'yinlari jarayonida bolada muhim bo'lgan kompetensiyalar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqish, shartlari bajarilishini tahlil qilishni o'rganadi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari o'z yo'nalishiga egaligi, xilma-xilligi, hayoti tajribalarga yaqinligi bilan ajralib turadi. Xalq o'yinlari vositasida, texnologik puxta ishlanmalari orqali, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi daragasiga ta'sir ko'rsatish uslublariga tayanadi.

Yuqoridagi tahlil hamda mulohazalardan kelib chiqib maktabgacha bolalik- bu shaxsiyatni shakllantirishning qisqa, ammo muhim davri hisoblanadi. Mazkur davrda bola atrofdagi hayot to'g'risida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, odatlar va to'g'ri hatti-harakat ko'nikmalari rivojlanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni Qoraqalpoq xalq o'yinlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash eng muhim faoliyat sifatida katta ahamiyatga ega. Qoraqalpoq xalq o'yinlari jarayonida bola ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

Tadqiqot ishida psixolog olimlarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin faoliyatida o'rganilganda, ularning funktsiyalari, o'ziga xosligi, boshqa faoliyat turlari bilan differensial diagnostikasi aniqlandi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari - bu kundalik ishlardan farq qiladigan faoliyat sanalib, insoniyat qayta-qayta, unda mavjud bo'lgan o'zi ixtiro qilgan dunyosini yaratadi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari go'zallikni bog'laydigan rishta hisoblanadi. Xalq o'yinlarida maktabgacha katta yoshdagi bola yashashni o'rganmaydi, balki o'zining haqiqiy, mustaqil hayotida yashaydi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun eng hissiy va rang-barang olam sanaladi, bunda maktabgacha katta yoshdagi bolalar xalq o'yinlarining tadqiqotchisi hisoblanadi.



L.S.Vigotskiy o'yinni "bola rivojlanishining to'qqizinchi to'lqini" deb, atagani bejiz emas. O'yin maktabgacha katta yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lib, vaqt o'tishi bilan, xayoti davomida shakllangan hatti-harakatlarni o'zida namoyon qilish orqali rivojlanadi. O'yinning asosiy motivi harakat natijasida emas, balki jarayonning o'zida, bolaga zavq bag'ishlaydigan harakatlarda yotadi. "G'olib bo'lish uchun emas, balki o'ynash uchun- bu umumiy formulalar, bolalar o'yinlari uchun motivatsiya beradi".

Qoraqalpoq xalq o'yinlarida bola shaxsiyatining barcha jihatlari shakllanadi uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga tayyorlanadi. Bugungi kunda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning qoraqalpoq xalq o'yinlari vositasida ularning kompetensiyalarini rivojlantirish muhim jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, qoraqalpoq xalq o'yinlari- bu bolalar tomonidan ijodiy aks ettirish shakli bo'lsa, kengaytirilgan shaklda xalq o'yinlari jamoaviy yetakchi faoliyat bo'lib, bola hayotini tashkil etishda katta o'rin egallaydi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni qoraqalpoq xalq o'yinlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga nisbatan kompleks chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tasavvurning rivojlanishi jarayonida avvalo, o'zlari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlariga nisbatan ongli tushunchalar paydo bo'la boshlaydi, kattalarga bo'lgan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlanadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Jumaniyazova, Z. R. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 9-15.
2. Жуманиязова, З. Р. (2021). ҲАРАКАТЛИ ҲҲИИЛАР ВА УЛАРИНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 119-122.
3. Reimovna, Z. Z. Education of Preschool Children to Be Educated, Educated, Physically Healthy, Strong. *JournalNX*, 696-699.



4. qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).
5. Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2154-2156.
6. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O ‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
7. Namazbayeva, L. (2023). CONTENT FACTORS AND PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR RESEARCH ACTIVITY. *European International Journal of Pedagogics*, 3(02), 19-30.
8. Намазбаева, Л. З., & Латипова, Л. С. (2023). ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РАКУРСЕ ВОСПРИЯТИЯ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 84-91.
9. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
10. Sadikova, D. (2022). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL KACHESTV STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATION TECHNOLOGY-AS AN ACTUAL EDUCATIONAL PROBLEM. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 46-50.